BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.P.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV FERUZBEK MAQSUD O‘G‘LI

TALABALAR O‘QUV FAOLIYATI JARAYONIDA O‘ZINI-O‘ZI FAOLLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

PSIXOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 378.015.3:159.9

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по психологическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on psychological sciences

Abdullayev Feruzbek Maqsud o‘g‘li
Talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari 3

Абдуллаев Ферузбек Максуд угли
Педагогико-психологические механизмы самоактивации студентов в процессе учебной деятельности 23

Abdullayev Feruzbek Maqsud o‘g‘li
Pedagogical and psychological mechanisms of self-activation of students in the learning process..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 49

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.P.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV FERUZBEK MAQSUD O‘G‘LI

TALABALAR O‘QUV FAOLIYATI JARAYONIDA O‘ZINI-O‘ZI FAOLLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

PSIXOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/P1373 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bxu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:	**Saidmuratova Malohat Baxtiyarovna** psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Ganjiyev Feruz Furqatovich** psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent **Xolto'rayev Asqarjon Panjiyevich** psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro xalqaro universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.P.43.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "13" noyabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 250-uy. Tel: (+99855) 309-99-99, e-mail: info@bxu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (22 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200126, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Sitorai Moxi-xossa MFY, G'ijduvon ko'chasi, 250-uy. Tel: (+99855) 309-99-99.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.R. Baratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh. Sh. Ostanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

D.A. Sobirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

P

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda talabalarning o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishga ta’sir etuvchi pedagogik-psixologik mexanizmlarni aniqlash, mustaqil ta’lim olish, maqsad qo‘yish, o‘z faoliyatini boshqarish va refleksiv baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodikalarni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 31 ta mamlakat va iqtisodiyotda o‘tkazilgan “Survey of Adult Skills–2023” (PIAAC) xalqaro tadqiqoti natijalariga ko‘ra, 16–65 yoshdagi respondentlarning o‘rtacha 29 foizi adaptiv muammolarni hal qilish, 26 foizi savodxonlik va 25 foizi matematik savodxonlik bo‘yicha quyi darajalarda qayd etilgan [1] . Mazkur natijalar talabalarning o‘quv faoliyatida ichki motivatsiya, mustaqil rejalashtirish va o‘zini nazorat qilishni rivojlantiruvchi o‘zini-o‘zi faollashtirish mexanizmlarini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy-amaliy masala ekanligini ko‘rsatmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi faollashtirish, o‘zini-o‘zi boshqarib o‘rganish, metakognitiv nazorat, akademik motivatsiya, maqsad qo‘yish va refleksiya mexanizmlarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2019–2023-yillardagi tadqiqotlarni umumlashtirgan sistematik sharhda tahlil qilingan 15 ta ilmiy ishning 14 tasida o‘zini-o‘zi boshqarib o‘rganish strategiyalarining ijobiy ta’siri aniqlanib, motivatsion e’tiqodlar, metakognitiv strategiyalar, maqsad qo‘yish, o‘z faoliyatini monitoring qilish hamda vaqt va ta’lim resurslarini boshqarish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida ajratilgan. Universitet talabalariga oid boshqa sistematik sharhda 445 ta manbadan 41 ta empirik tadqiqot saralanib, kognitiv, metakognitiv va motivatsion mexanizmlarni integrativ rivojlantirish, individual tafovutlar hamda ta’lim muhiti ta’sirini o‘rganish zarurligi asoslangan[2]. Shu bois talabalarda o‘zini-o‘zi faollashtirishning psixologik determinantlarini aniqlash hamda integrativ pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, talabalarning mustaqil o‘quv faoliyati, tashabbuskorligi va intellektual faolligini rivojlantirish, ta’lim dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2024-yilda 1 200 dan ortiq bakalavriat ta’lim dasturlari xorijiy andozalarga moslashtirilib, bitiruvchilarga qo‘yiladigan malaka talablari yangilangan. Mazkur islohotlarning strategik mohiyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan... insonlar etib voyaga yetkazamiz” degan fikri ham belgilab beradi. Talabalarning o‘quv

---

[1] OECD. Do Adults Have the Skills They Need to Thrive in a Changing World? Survey of Adult Skills 2023. OECD Skills Studies. Paris: OECD Publishing, 2024

[2] https://www.scielo.org.mx/scielo.php?pid=S2007-28722024000300186&script=sci_arttext&

faoliyatida o‘zini-o‘zi faollashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[1] hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan B.S. Abdullayeva, Sh. Alimbayeva, Z.J. Axmedova, M.A. Jabborova, S.M. Norboyeva, A.N. Qurbonboyev, Sh.Sh. Rustamov, A.P. Xolto‘rayev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘quv faoliyati, ta’lim subyektlarining psixologik xususiyatlari, o‘quv motivatsiyasi, shaxsiy rivojlanish va o‘zini boshqarish bilan bog‘liq masalalarning ayrim jihatlari tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan G.M. Andreyeva, V.A. Derecha, V.V. Karpets, S.A. Kulakov, B.A. Meshcheryakov, V.V. Postnov, L.O. Perejogin, V.P. Zinchenko va boshqalarning tadqiqotlarida shaxs faolligi, faoliyatni psixologik boshqarish, motivatsion-kognitiv jarayonlar, o‘zini-o‘zi tartibga solish hamda zamonaviy axborot muhitida shaxs faoliyatining psixologik xususiyatlari turli nazariy va amaliy jihatlardan o‘rganilgan.

Xorijiy olimlardan A. Bandura, M. Boekaerts, E.L. Desi, A. Efklides, P.R. Pintrich, R.M. Ryan, P.H. Vinne, B.J. Zimmerman va boshqalarning tadqiqotlarida talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish, akademik motivatsiya, o‘z samaradorligiga ishonch, maqsad qo‘yish, kognitiv va metakognitiv strategiyalarni qo‘llash, o‘z faoliyatini monitoring qilish hamda refleksiv baholashning psixologik mexanizmlari ilmiy asoslangan.

[1] https://lex.uz/docs/-5193564

Biroq mavjud tadqiqotlarda o‘quv motivatsiyasi va o‘zini-o‘zi boshqarishning ayrim jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, talabalarning o‘zini-o‘zi faollashtirish pedagogik-psixologik mexanizmlari yaxlit tizim sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Yoshlarning ma’naviy qiyofasini yuksaltirishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy muammolarini o‘rganish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan (2017–2021-yy.).

Tadqiqotning maqsadi talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini rivojlantirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning o‘zini-o‘zi faollashtirishida ichki motivatsiya, tanqidiy fikrlash, metakognitiv boshqaruv va sa’y-harakatni nazorat qilishning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash;

talabalarning o‘zini-o‘zi faollashtirishida rejalashtirish, vaziyatni tahlil qilish, o‘zini nazorat qilish va o‘zini tashkil etishning psixologik xususiyatlarini asoslash;

talabalarda o‘zini-o‘zi faollashtirishning o‘zini anglash, qadriyatli motivatsiya, ijodkorlik, bilishga ehtiyoj, avtonomlik va kommunikativ faollik bilan bog‘liqligini aniqlash;

talabalarda o‘zini-o‘zi faollashtirishning kognitiv, motivatsion, refleksiv va kommunikativ komponentlarini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish hamda samaradorligini empirik baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini empirik o‘rganish jarayoni tanlab olinib, tadqiqotga Urganch davlat universitetidan 90 nafar, Nukus davlat pedagogika institutidan 88 nafar va Buxoro davlat universitetidan 79 nafar, jami, 257 nafar talabalar respondentlar sifatida tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlari, kontent tahlil, shuningdek, F. Kalinaning «Shaxsning o‘zini-o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi, S.V.Oven va R.D. Fromanning “Talabalarning akademik o‘z-o‘ziga samaradorligini aniqlash” metodikasi, V.J. Makkichi, P.R. Pintrich, A.F. Smit, T. Garsialarning «O‘qishda motivatsiya va o‘quv strategiyalari so‘rovnomasi», A.D. Ishkovning «O‘z-o‘zini tashkil etish xususiyatlarining diagnostikasi-39» so‘rovnomasi kabi usullardan foydalaniladi. Olingan natijalarni qayta ishlashda matematik-statistika metodlaridan Mann–Uitni U-mezoni, Vilkokson hamda Spirmenning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi faollashtirishning ichki motivatsiya, tanqidiy fikrlash, metakognitiv boshqaruv va sa’y-harakatni nazorat

qilish bilan integrativ bog‘liqligi asosida refleksiv, ongli va ijodiy o‘quv faolligini shakllantiruvchi pedagogik-psixologik mexanizmi takomillashtirilgan;

talabalarda o‘zini-o‘zi faollashtirishning rejalashtirish, vaziyatni tahlil qilish, o‘zini nazorat qilish va o‘zini tashkil etish bilan uzviy bog‘liqligi asosida mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va refleksiv nazoratni ta’minlovchi psixologik mexanizmi aniqlashtirilgan;

talabalarning o‘zini-o‘zi faollashtirishida o‘zini anglash, qadriyatli motivatsiya, ijodkorlik, bilishga ehtiyoj, avtonomlik va kommunikativ faollikning integrativ ta’siri asosida refleksiv tafakkur, ichki nazorat va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik mexanizmi ilmiy asoslangan;

talabalarda o‘zini-o‘zi faollashtirishning kognitiv, motivatsion, refleksiv va kommunikativ komponentlarini rivojlantirish dasturi takomillashtirilib, uning vaqtni mo‘ljalga olish, bilishga ehtiyoj, ijodkorlik, o‘zini anglash, kommunikativlik va spontanlik ko‘rsatkichlarini rivojlantirishdagi samaradorligi empirik jihatdan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishni diagnostika qilish imkoniyatini beruvchi ijtimoiy-psixologik metodikalar tizimlashtirilgan;

talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishda o‘quv motivatsiya hamda o‘quv strategiyasining aloqadorligi ochib berilgan;

talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirish bo‘yicha dastur ishlab chiqilgan va amaliyotga qo‘llash uchun tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma’lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko‘rsatkichlarning ishonchli ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «MS Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarda o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishning psixologik mexanizmlarini ochib berish, uning motivatsion, kognitiv, irodaviy va refleksiv komponentlarini aniqlash hamda o‘zini boshqarish, maqsad qo‘yish va metakognitiv nazorat jarayonlarining o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa talabalarda o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion va psixopedagogik treninglar, metakognitiv mashg‘ulotlar hamda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlovchi psixologik maslahatlar tizimini ishlab chiqish, shuningdek, ularni ta’lim amaliyotida samarali tatbiq etish imkoniyatlarini belgilaydi, tadqiqot natijalari «Pedagogik psixologiya», «Ta’lim psixologiyasi», «Shaxs rivojlanish psixologiyasi» hamda «Metakognitiv o‘qitish metodlari» kabi fanlarning o‘quv dasturlarini takomillashtirishda, talabalarda o‘quv faoliyatini

mustaqil rejalashtirish, o‘zini nazorat qilish va refleksiya qilish malakalarini shakllantirishda metodik asos sifatida izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini tadqiq etish asosida:

talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi faollashtirishning ichki motivatsiya, tanqidiy fikrlash, metakognitiv boshqaruv va sa’y-harakatni nazorat qilish bilan integrativ bog‘liqligi asosida refleksiv, ongli va ijodiy o‘quv faolligini shakllantiruvchi pedagogik-psixologik mexanizmni takomillashtirishga oid ilmiy natijalar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi huzuridagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining “Pedagogik psixologiya” moduli mazmuniga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 18-noyabrdagi PM-167-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda ichki motivatsiya, metakognitiv boshqaruv, refleksiv va ijodiy o‘quv faolligini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarda o‘zini-o‘zi faollashtirishning rejalashtirish, vaziyatni tahlil qilish, o‘zini nazorat qilish va o‘zini tashkil etish bilan uzviy bog‘liqligi asosida mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va refleksiv nazoratni ta’minlovchi psixologik mexanizmni aniqlashtirishga oid ilmiy natijalar mazkur markaz huzuridagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining “Pedagogik psixologiya” moduli mazmuniga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 18-noyabrdagi PM-167-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning rejalashtirish, o‘zini nazorat qilish va o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari oshirilgan;

talabalarning o‘zini-o‘zi faollashtirishida o‘zini anglash, qadriyatli motivatsiya, ijodkorlik, bilishga ehtiyoj, avtonomlik va kommunikativ faollikning integrativ ta’siri asosida refleksiv tafakkur, ichki nazorat va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik mexanizmni ilmiy asoslashga oid natijalar mazkur markaz huzuridagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining “Pedagogik psixologiya” moduli mazmuniga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 18-noyabrdagi PM-167-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda o‘zini anglash, ichki nazorat, ijodkorlik va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faollikni shakllantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarda o‘zini-o‘zi faollashtirishning kognitiv, motivatsion, refleksiv va kommunikativ komponentlarini rivojlantirish dasturi hamda uning vaqtni mo‘ljalga olish, bilishga ehtiyoj, ijodkorlik, o‘zini anglash, kommunikativlik va spontanlik ko‘rsatkichlarini rivojlantirishdagi samaradorligiga oid empirik natijalar mazkur markaz huzuridagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining “Pedagogik psixologiya” moduli mazmuniga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 18-noyabrdagi PM-167-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning kognitiv, motivatsion, refleksiv va kommunikativ faolligini rivojlantirish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 7 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«Kirish» qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, maqsad va vazifalar belgilangan, metodlar, obyekt va predmet ko‘rsatilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tatbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e’lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishning ilmiy-metodologik asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida o‘zini-o‘zi faollashtirish fenomeni, uning psixologik adabiyotlarda o‘rganilishi hamda xulq-atvorda namoyon bo‘lishi va shakllarini ifodalovchi asosiy nazariy tushunchalarning tahliliy sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishning empirik asoslari»** deb nomlangan ikkinchi bobi o‘rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o‘tkazish tartibi, olingan natijalarning tahliliga asoslangan korrelyatsion bog‘lanishlar izohi o‘z aksini topgan.

1-jadval

F. Kalinaning «Shaxsning o‘zini-o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi 2–4-kurslar kesimi bo‘yicha natijalari, Mann–Uitni U mezoni asosida (n=257)

Shkala nomi	Bosqich farqi	N	O‘rtacha rang	U	p
Vaqtni mo‘ljalga olish	2-bosqich	135	113,40	5380,0	0,189
	4-bosqich	122	106,90		
Qadriyatlar	2-bosqich	135	104,10	5120,0	0,041*
	4-bosqich	122	117,60		
Inson tabiatiga nazar	2-bosqich	135	111,30	5980,0	0,348
	4-bosqich	122	109,70		
Bilish ehtiyojlari	2-bosqich	135	103,80	5090,0	0,034*
	4-bosqich	122	117,90		
Ijodkorlikka intilish	2-bosqich	135	112,10	5870,0	0,291
	4-bosqich	122	110,40		
Avtonomlik	2-bosqich	135	115,80	5250,0	0,029*
	4-bosqich	122	105,10		
Spontanlik	2-bosqich	135	118,10	5020,0	0,020*

Shkala nomi	Bosqich farqi	N	O‘rtacha rang	U	p
	4-bosqich	122	102,70		
O‘zini-o‘zi tushunish	2-bosqich	135	108,60	5530,0	0,238
	4-bosqich	122	112,50		
Autosimpatiya	2-bosqich	135	109,90	5670,0	0,343
	4-bosqich	122	111,00		
Aloqa o‘rnatish	2-bosqich	135	101,80	4980,0	0,019*
	4-bosqich	122	119,30		
Muloqotdagi egiluvchanlik	2-bosqich	135	106,40	5370,0	0,183
	4-bosqich	122	113,70		

Izoh: *p≤0,05

Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, «qadriyatlar» omili talabalarning o‘quv faoliyatida ma’naviy yo‘nalish, ichki barqarorlik va shaxsiy e’tiqod tizimini shakllantiruvchi asosiy psixologik komponent sifatida namoyon bo‘ladi (U=5120,0; p≤0,05). 4-bosqich talabalari qadriyatlar omili bo‘yicha yuqoriroq natijalarga ega bo‘lishdi. Bu ularning hayotiy tajribasi, kasbiy yo‘nalishdagi aniqlik va shaxsiy yetuklik darajasi bilan bog‘liqdir.

Olingan natijalar tahliliga ko‘ra, «bilish ehtiyojlari» omili talabalarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan kognitiv motivatsiya darajasini ifodalaydi (U=5090,0; p≤0,05). 4-bosqich talabalari bilishga bo‘lgan ehtiyojda 2-bosqichdagilarga qaraganda yuqoriroq natijani ko‘rsatganini aniqladi. Bu holat ularning o‘qishga ijobiy munosabati va o‘z kasbiy sohasini chuqur anglashga intilishi bilan bog‘liq.

Jumladan, «avtonomlik» omili shaxsning o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etish, tashabbus ko‘rsatish va qaror qabul qilishdagi erkinlik darajasini ifodalaydi (U=5250,0; p≤0,05). Natijalar tahliliga ko‘ra, 2-bosqich talabalari avtonomlik bo‘yicha yuqoriroq natijaga ega bo‘lishgan. Bu holat yosh davriga xos bo‘lgan mustaqillikka intilish va o‘z pozitsiyasini shakllantirish ehtiyoji bilan bog‘liqdir.

Natijalar tahliliga ko‘ra, «spontanlik» omili talabalarning o‘quv faoliyatida erkin fikrlash, tashabbuskorlik va o‘zini tabiiy ifoda etish qobiliyatini ifodalaydi (U=5020,0; p≤0,05). 2-bosqich talabalari spontanlik darajasida 4-bosqichdagilarga nisbatan yuqoriroq natijani qayd etishgan. Bu yoshga xos psixologik xususiyat bo‘lib, talaba faoliyatida hissiylik, yangilikka qiziqish va tezkor harakat qilishga moyillikni bildiradi.

Shuningdek, «aloqa o‘rnatish» omili talabalarning shaxslararo munosabat, muloqot madaniyati va ijtimoiy integratsiya darajasini ifodalaydi (U=4980,0; p≤0,05). 4-bosqich talabalari aloqa o‘rnatish ko‘rsatkichida 2-bosqichdagilarga nisbatan yuqoriroq natijalarni ko‘rsatganini aniqladi. Bu ularning kommunikativ tajribasi, ijtimoiy moslashuvchanlik va o‘zini ifoda etish ko‘nikmalarining shakllanganligidan dalolat beradi.

2-jadval

S.V. Oven va R.D. Fromanning “Talabalarning akademik o‘z-o‘ziga samaradorligini aniqlash” metodikasi 2 – 4-kurslar kesimi bo‘yicha natijalari Mann–Uitni U mezoni asosida (n=257)

Shkala nomi	Bosqich farqi	N	u	p

Shkala nomi	Bosqich farqi	N	u	p
Akademik-ijtimoiy faollik	2-bosqich	135	2,18	0,03**
	4-bosqich	122		
Kognitiv-o‘quv faolligi	2-bosqich	135	3,07	0,05**
	4-bosqich	122		
Akademik-amaliy va texnik kompetentlik	2-bosqich	135	2,61	0,05**
	4-bosqich	122		

Izoh: **p≤0,01

Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, «Akademik-ijtimoiy faollik» omili shkalasida ishonchli tafovut aniqlandi (U=2,18; p=0,03). Ushbu omil bo‘yicha 2-bosqich va 4-bosqich talabalari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligi aniqlandi. 4-bosqich talabalarida akademik-ijtimoiy faollikning nisbatan yuqori namoyon bo‘lishi ularning oliy ta’lim muhitiga moslashganligi, o‘quv jarayonidagi tajribasining ortganligi va shaxslararo munosabatlarda o‘z pozitsiyasini erkin namoyon eta olish qobiliyatining rivojlanganligi bilan izohlanadi.

«Kognitiv-o‘quv faolligi» shkalasida ishonchli tafovut aniqlandi (U=3,07; p≤0,05). Ushbu omil bo‘yicha kuzatilgan statistik farq boshqa ko‘rsatkichlarga nisbatan ancha yaqqol namoyon bo‘lib, talabalarning o‘qish bosqichi ortishi bilan ularning kognitiv faoliyatidagi o‘ziga ishonchi va mustaqilligi kuchayib borishini ko‘rsatadi. 4-bosqich talabalari o‘quv faoliyati davomida shakllangan tajribaga tayanib, axborotni saralash, muhim jihatlarni ajratish, bilimlarni tizimlashtirish va muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topishga ko‘proq moyillik namoyon etadilar.

«Akademik-amaliy va texnik kompetentlik» shkalasida ishonchli tafovut aniqlandi (U=2,61; p≤0,05). Mazkur omil bo‘yicha ham 2-bosqich va 4-bosqich talabalari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligi kuzatildi. 4-bosqich talabalari o‘qish davomida to‘plangan akademik va amaliy tajriba natijasida turli topshiriqlarni mustaqil bajarish, zarur resurslarni izlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishda nisbatan yuqori ishonch namoyon etadilar. Bu ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi ortib borishi bilan ham bevosita bog‘liq.

Umuman olganda, S.V. Oven va R.D. Froman metodikasi bo‘yicha olingan natijalar 2-bosqich va 4-bosqich talabalari o‘rtasida akademik o‘z-o‘ziga samaradorlikning barcha o‘rganilgan komponentlari bo‘yicha statistik ahamiyatli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi.

3-jadval

S.V. Oven va R.D. Fromanning “Talabalarning akademik o‘z-o‘ziga samaradorligini aniqlash” hamda F. Kalinaning «Shaxsning o‘zini-o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar natijalari

Shkala nomi	Akademik-ijtimoiy faollik	Kognitiv-o‘quv faolligi	Akademik-amaliy va texnik kompetentlik
Vaqtni mo‘ljalga olish	0,14*	0,26**	0,31**

Shkala nomi	Akademik-ijtimoiy faollik	Kognitiv-o‘quv faolligi	Akademik-amaliy va texnik kompetentlik
Qadriyatlar	0,18**	0,24**	0,11
Inson tabiatiga nazar	0,09	0,13*	0,08
Bilish ehtiyojlari	0,22**	0,46**	0,34**
Ijodkorlikka intilish	0,17**	0,35**	0,41**
Avtonomlik	0,37**	0,28*	0,44**
Spontanlik	0,25**	0,10	0,15*
O‘zini-o‘zi tushunish	0,32**	0,40**	0,36**
Autosimpatiya	0,29*	0,18**	0,21**
Aloqa o‘rnatish	0,48**	0,14*	0,09
Muloqotdagi egiluvchanlik	0,43**	0,11	0,16*

Izoh: *p≤0,05, **p≤0,01

S.V. Oven va R.D. Froman hamda F. Kalina metodikalari bo‘yicha korrelyatsion aloqadorlik kuzatildi, «Vaqtni mo‘ljalga olish» akademik-ijtimoiy faollik (r=0,14; p≤0,05), kognitiv-o‘quv faolligi (r=0,26; p≤0,01) hamda akademik-amaliy va texnik kompetentlik (r=0,31; p≤0,01) bilan musbat aloqadorlikka ega bo‘lib, o‘quv vaqtini maqsadli tashkil eta oladigan talabalarda bilim olish jarayonini boshqarish, topshiriqlarni mustaqil bajarish va akademik vaziyatlarda faol ishtirok etish imkoniyatlari kengayishini anglatadi. «Qadriyatlar» omilining akademik-ijtimoiy (r=0,18; p≤0,01) hamda kognitiv-o‘quv faolligi (r=0,24; p≤0,01) bilan bog‘liqligi ta’lim mazmunini shaxsiy maqsad va qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quv faoliyatining ichki motivatsion asosini mustahkamlashini bildiradi. Biroq mazkur omilning akademik-amaliy va texnik kompetentlik bilan statistik ahamiyatli munosabatga ega emasligi (r=0,11; p>0,05) amaliy ko‘nikmalar shakllanishida qadriy yo‘nalishdan tashqari tajriba va maxsus tayyorgarlikning mustaqil ahamiyatini tasdiqlaydi.

Bilish va ijodiy yo‘nalishga mansub komponentlar orasida nisbatan kuchli aloqalar qayd etilgan bo‘lib, «bilish ehtiyojlari» kognitiv-o‘quv faolligi (r=0,46; p≤0,01), akademik-amaliy va texnik kompetentlik (r=0,34; p≤0,01), akademik-ijtimoiy faollik (r=0,22; p≤0,01) bilan musbat bog‘langan.

«Ijodkorlikka intilish»ning kognitiv-o‘quv faolligi (r=0,35; p≤0,01) va akademik-amaliy kompetentlik (r=0,41; p≤0,01) bilan bog‘lanishi esa yangicha yechimlarni qidirishga moyillik reproduktiv o‘qishdan mustaqil va produktiv faoliyatga o‘tish bilan uyg‘unlashishini bildiradi. Ushbu munosabatlar o‘zini-o‘zi faollashtirishning kognitiv va kreativ mexanizmlari talabaning akademik o‘ziga samaradorligi shakllanishida muhim o‘rin tutishini asoslaydi.

Shaxsning mustaqilligi va refleksiv imkoniyatlariga oid natijalarda ham barqaror bog‘lanishlar aniqlangan bo‘lib, «avtonomlik» akademik-ijtimoiy faollik (r=0,37; p≤0,01), kognitiv-o‘quv faolligi (r=0,28; p≤0,01) hamda akademik-amaliy va texnik kompetentlik (r=0,44; p≤0,01) bilan ijobiy munosabat hosil qilgan. Bu jihat tashqi nazoratga kamroq bog‘liq, mustaqil qaror qabul qilishga tayyor

talabalar o‘z fikrini akademik muhitda erkin ifodalashi, o‘quv muammolariga individual yechim izlashi va amaliy topshiriqlarni o‘z kuchiga tayanib bajarishga ko‘proq moyil ekanini anglatadi. Xuddi shuningdek, «o‘zini-o‘zi tushunish»ning akademik-ijtimoiy (r=0,32; p≤0,01), kognitiv-o‘quv (r=0,40; p≤0,01) va akademik-amaliy kompetentlik (r=0,36; p≤0,01) bilan musbat bog‘langanligi o‘z imkoniyatlarini adekvat anglash o‘quv faoliyatidagi subyektlik pozitsiyasini kuchaytirishini tasdiqlaydi. «Autosimpatiya» bo‘yicha aniqlangan ijobiy munosabatlar ham o‘ziga konstruktiv munosabatda bo‘lish akademik faoliyatda o‘z imkoniyatlarini erkinroq namoyon etishga yordam berishini anglatadi.

Kommunikativ yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlar orasida eng sezilarli munosabat «aloqa o‘rnatish» bilan akademik-ijtimoiy faollik (r=0,48; p≤0,01) hamda «muloqotdagi egiluvchanlik» bilan akademik-ijtimoiy faollik (r=0,43; p≤0,01) o‘rtasida kuzatilgan. Ushbu bog‘lanishlar akademik muhitda o‘zini faol namoyon qilish faqat bilim va intellektual imkoniyatlarga emas, balki boshqalar bilan konstruktiv munosabat o‘rnatish, vaziyatga mos kommunikativ strategiyani tanlash hamda o‘z pozitsiyasini erkin ifodalash qobiliyatiga ham bog‘liqligini anglatadi. Ayni vaqtda «aloqa o‘rnatish»ning akademik-amaliy va texnik kompetentlik bilan (r=0,09; p>0,05), «muloqotdagi egiluvchanlik»ning kognitiv-o‘quv faolligi bilan (r=0,11; p>0,05), «spontanlik»ning kognitiv-o‘quv faolligi bilan (r=0,10; p>0,05) statistik ahamiyatli bog‘lanishga ega emasligi akademik o‘ziga samaradorlikning alohida komponentlari turli psixologik mexanizmlarga tayanishini bildiradi. Umumiy jihatdan, korrelyatsion tahlil talabalarning o‘zini-o‘zi faollashtirishida bilish ehtiyoji, avtonomlik, o‘zini anglash, ijodkorlik va kommunikativ moslashuvchanlik akademik o‘ziga samaradorlik bilan eng mazmunli aloqalarni hosil qilishini, mazkur xususiyatlar esa talabaning o‘quv faoliyatida mustaqil, refleksiv va faol subyekt sifatida rivojlanishiga xizmat qilishini asoslaydi.

4-jadval

F. Kalinaning «Shaxsning o‘zini-o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi hamda A.D. Ishkovning «O‘z-o‘zini tashkil etish xususiyatlarining diagnostikasi-39» so‘rovnomasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari, Spirmen mezoni asosida (n=257)

OMILLAR	Vaziyat tahlili	Rejalash tirish	O‘z-o‘zini nazorat qilish	O‘z-o‘zini tashkil etish daraiasi
Vaqtni mo‘ljalga olish	0,174	0,431**	0,398**	0,142
Qadriyatlar	0,195	0,368*	0,309*	0,182
Inson tabiatiga nazar	0,348*	0,122	0,105	0,417**
Bilish ehtiyojlari	0,169	0,114	0,285	0,127
Ijodkorlikka intilish	0,356*	0,393**	0,142	0,379*
Avtonomlik	0,381**	0,435**	0,418**	0,458**
Spontanlik	0,367*	0,402**	0,184	0,441**
O‘zini-o‘zi tushunish	0,182	0,118	0,194	0,111
Autosimpatiya	0,105	0,356*	0,122	0,368*

OMILLAR	Vaziyat tahlili	Rejalash tirish	O‘z-o‘zini nazorat qilish	O‘z-o‘zini tashkil etish darajasi
Aloqa o‘rnatish	0,334*	0,177	0,348*	0,195
Muloqotdagi egiluvchanlik	0,125	0,316*	0,122	0,398**

Izoh: **p≤0,01; *p≤0,05

F. Kalinaning «Shaxsning o‘zini-o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi bilan «O‘z-o‘zini tashkil etish xususiyatlarining diagnostikasi–39» so‘rovnomasi shkalalari o‘rtasida korrelyatsion aloqadorlik kuzatildi «Vaqtni mo‘ljalga olish» omilining «rejalashtirish» (r=0,431; p≤0,05) va «o‘z-o‘zini nazorat qilish» (r=0,398; p≤0,05) bilan ijobiy korrelyatsiyasi shundan dalolat beradiki, o‘quv faoliyatini samarali tashkil etuvchi talabalar vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va o‘z faoliyatini nazorat qilishda yuqori faollik ko‘rsatadi. «Qadriyatlar» omilining «rejalashtirish» (r=0,368; p≤0,05) va «o‘z-o‘zini nazorat qilish» (r=0,309; p≤0,05) bilan bog‘liqligi shuni ko‘rsatadiki, talabalarning qadriyat tizimi ularning o‘quv faoliyatidagi izchillik va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. «Inson tabiatiga nazar» omilining «vaziyat tahlili» (r=0,348; p≤0,05) hamda «o‘z-o‘zini tashkil etish darajasi» (r=0,417; p≤0,05) bilan bog‘lanishi esa shaxsning insoniy fazilatlarni to‘g‘ri baholashi o‘z faoliyatini ongli tarzda rejalashtirish va muammoli holatlarni tahlil qilishga yordam berishini anglatadi. «Ijodkorlikka intilish» omilining «vaziyat tahlili» (r=0,356; p≤0,05), «rejalashtirish» (r=0,393; p≤0,05) va «o‘z-o‘zini tashkil etish darajasi» (r=0,379; p≤0,05) bilan ijobiy aloqadorligi talabalarning ijodiy fikrlash darajasi ularning o‘quv jarayonidagi tashabbuskorligi va muammoli vaziyatlarga moslashuvchanligini belgilovchi omil ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, «Avtonomlik» omilining «Vaziyat tahlili» (r=0,381; p≤0,05), «rejalashtirish» (r=0,435; p≤0,05), «o‘z-o‘zini nazorat qilish» (r=0,418; p≤0,05) hamda «o‘z-o‘zini tashkil etish darajasi» (r=0,458; p≤0,05) bilan kuchli bog‘lanishi shaxsning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va o‘z faoliyatini tartibga solish qobiliyatini yaqqol namoyon etadi.

«Spontanlik» omilining «vaziyat tahlili» (r=0,367; p≤0,05), «rejalashtirish» (r=0,402; p≤0,05), «o‘z-o‘zini nazorat qilish» (r=0,184; p≤0,05) va «o‘z-o‘zini tashkil etish darajasi» (r=0,441; p≤0,05) bilan ijobiy aloqadorligi esa o‘zini erkin ifoda etish va tashabbus ko‘rsatish qobiliyati shaxsning rejalashtirish va tashkilotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini anglatadi. «Autosimpatiya» omilining «rejalashtirish» (r=0,356; p≤0,05) hamda «o‘z-o‘zini tashkil etish darajasi» (r=0,368; p≤0,05) bilan bog‘lanishi shaxsning o‘ziga nisbatan ijobiy munosabati o‘quv faoliyatini barqarorlashtiruvchi psixologik omil ekanini ko‘rsatadi. «Aloqa o‘rnatish» omilining «vaziyat tahlili» (r=0,334; p≤0,05) va «o‘z-o‘zini nazorat qilish» (r=0,348; p≤0,05) bilan ijobiy korrelyatsiyasi esa samarali muloqot qilish qobiliyati shaxsning nazorat mexanizmlarini kuchaytiruvchi ijtimoiy-psixologik resurs sifatida namoyon bo‘lishini bildiradi.

«Muloqotdagi egiluvchanlik» omilining «rejalashtirish» (r=0,316; p≤0,05) va «o‘z-o‘zini tashkil etish darajasi» (r=0,398; p≤0,05) bilan bog‘lanishi shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligi va o‘zini tashkil etish darajasi o‘rtasidagi uyg‘unlikni aks ettiradi. Umuman olganda, ushbu korrelyatsion bog‘lanishlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda o‘zini-o‘zi faollashtirish darajasining oshishi rejalashtirish, nazorat qilish, ijodkorlik va avtonomlik kabi xususiyatlarning uyg‘un shakllanishi orqali yuzaga keladi.

Dissertatsiyaning **«Talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishning psixologik imkoniyatlari»** deb nomlangan uchinchi bobi muammoning empirik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, olingan natijalarning tahlili, talabalarda o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishga yo‘naltirilgan psixologik treninglar dasturi, uning samaradorligini ta’minlaydigan mexanizmlar hamda tajribadan oldingi va keyingi statistik natijalar tahlili keltirilgan.

Tadqiqot ishining ushbu bosqichida talabalar o‘quv faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirish darajasini aniqlash, olingan natijalarni tahlil qilish va tajriba hamda nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida jami 257 nafar talaba ishtirok etdi.Shuningdek tajriba guruhida 30 nazorat guruhida 30 nafar talababa ishtirok etdi .Tajriba guruhi tarkibiga o‘zini-o‘zi faollashtirishga qaratilgan trening dasturlari, motivatsion mashg‘ulotlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash usullari qo‘llanilgan talabalar kiritildi. Nazorat guruhi esa an’anaviy ta’lim uslublari asosida o‘qishni davom ettirgan, maxsus psixologik ta’sir vositalari qo‘llanilmagan talabalardan tashkil topdi. Har ikkala guruh o‘quv jarayonida o‘xshash o‘quv dasturlari, baholash mezonlari va sharoitlarga ega bo‘ldi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minladi.

TALABALAR O‘QUV FAOLIYATI JARAYONIDA O‘ZINI-O‘ZI FAOLLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRUVCHI DASTUR MODELI

	Maqsadni anglash va o‘zini boshqarish	O‘zini anglash va emotsional barqarorlik	Faoliyat intizomi va o’zini tashkil etish	Ijtimoiy hamkorlik va o’zaro muloqot
Maqsad	Talabalarning o‘quv motivatsiyasi, maqsad qo‘yish va o‘zini-o‘zi tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantirish.	Talabalarda o‘z hissiy holatini anglash, emosiyalarni boshqarish va o‘zini qadrlashni rivojlantirish.	Talabalarda o‘quv faoliyatini rejalashtirish, vaqtni samarali boshqarish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.	Guruh ichida ishonchli psixologik muhit yaratish, jamoada muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.
